



TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA TASHKILIY MEXANIZMLARI

Kodirova Xurshida

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0002-5917-4622

xurshidakodirova877@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va tashkiliy mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirishda ilg'or boshqaruv yondashuvlari - tejamkor ishlab chiqarish, o'z vaqtida ishlab chiqarish va olti sigma tizimi muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy jihatlari (resurslardan foydalanish, tannarx, energiya va suv sarfi) va tashkiliy jihatlari (bo'limlararo muvofiqlashtirish, sifat nazorati, xodimlar malakasi) o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning kompleks boshqaruvi korxonaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, maqolada tarmoqdagi modernizatsiya jarayonlari, eksport ko'rsatkichlari va ishchi kuchi samaradorligi ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik korxonasi, ishlab chiqarish, boshqaruv, modernizatsiya, ilg'or boshqaruv, tashkiliy mexanizm, resurs sarfi.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Кодирова Хуршида

Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Аннотация. В данной статье анализируются экономическая эффективность и организационные механизмы производственной деятельности текстильных предприятий Узбекистана. Результаты исследования показывают, что передовые методы управления - бережливое производство, производство «точно в срок» и система «Шесть сигм» - играют важную роль в оптимизации и повышении эффективности производственных процессов. Экономические аспекты производственных процессов (использование ресурсов, себестоимость, энергопотребление и водопотребление) и организационные аспекты (межведомственная координация, контроль качества, квалификация персонала) тесно взаимосвязаны, а их комплексное управление обеспечивает конкурентоспособность и устойчивое развитие предприятия. Одновременно в статье анализируются процессы модернизации в отрасли, экспортные показатели и эффективность труда.

Ключевые слова: текстильное предприятие, производство, управление, модернизация, передовые методы управления, организационный механизм, потребление ресурсов.

ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION ACTIVITIES AND ORGANIZATIONAL MECHANISMS IN TEXTILE ENTERPRISES

Kadirova Khurshida

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. *This article analyzes the economic efficiency and organizational mechanisms of production activities at textile enterprises in Uzbekistan. The results of the study show that advanced management approaches - lean production, just-in-time production and the Six Sigma system - play an important role in optimizing and increasing the efficiency of production processes. The economic aspects of production processes (resource use, cost, energy and water consumption) and organizational aspects (interdepartmental coordination, quality control, personnel qualifications) are closely interconnected, and their integrated management ensures the competitiveness and sustainable development of the enterprise. At the same time, the article also analyzes the modernization processes in the industry, export indicators and labor efficiency.*

Keywords: *textile enterprise, production, management, modernization, advanced management, organizational mechanism, resource consumption.*

Kirish.

To'qimachilik sanoati ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi, ko'p bosqichliligi va resurs talabchanligi bilan ajralib turadi. Paxta tolasining dastlabki ishlov berilishidan tortib, ip yigirish, to'qish, bo'yash, pardozlash va tayyor mahsulot tikishgacha bo'lgan texnologik bosqichlar uzluksiz zanjirni tashkil etadi. Ushbu jarayonlarning har biri alohida iqtisodiy xarajatlar, tashkiliy jarayonlar va boshqaruv mexanizmlarini talab qiladi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va resurslarni optimallashtirish to'qimachilik korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, eksport hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish, qo'shimcha qiymat zanjirini chuqurlashtirish, resurs sarfini optimallashtirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, texnologik jarayonlarni raqamlashtirish va xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha bosqichlarni samarali muvofiqlashtirish bugungi kunda tarmoq rivojining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Amaldagi holatning tahlili shuni ko'rsatadiki, qator to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari hali ham an'anaviy usullarga tayanadi, resurslardan foydalanish samaradorligi past, operatsiyalar o'rtasidagi muvofiqlashuv yetarli emas. Quvvatlar yuklanishining teng emasligi, xomashyo ta'minotidagi uzilishlar, energiya sarfining yuqoriligi va brak darajasining nazoratsizligi kabi omillar korxonalarining umumiy raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ishlab chiqarish boshqaruvining amaldagi holatini tizimli o'rganish, uning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash hamda rivojlantirish imkoniyatlarini baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Umarxodjayeva va Ismailovlar (2019) o'z tadqiqotlarida korporativ boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini batafsil yoritgan bo'lib, boshqaruv tizimlari, strategik qaror qabul qilish mexanizmlari va korporativ boshqaruv tamoyillarini ochib berganlar. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo'yicha maqolamizda ushbu manba boshqaruvning tizimli yondashuvi va samaradorlikni oshirish usullarini asoslashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xoshimov (2003) korporativ strukturalarning shakllanishi, ularning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta'sirini tahlil qilingan va to'qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruv tizimining optimallasuvi va modernizatsiya jarayonlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yo'ldoshev va Nabokovlar (2013) menejmentning nazariy asoslari, boshqaruv metodlari va jarayonlarni optimallashtirish usullarini keng qamrovli yoritgan va ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan tejamkor foydalanish bo'yicha asosiy konsepsiyalarni tushuntirib berishgan.

Yo'ldoshev va Yusupovalar (2019) tizimli yondashuv asosida menejment nazariyasi, jarayonlarni tashkil etish va integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini chuqur tahlil qilganlar. To'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi va bo'limlararo muvofiqlikni ta'minlashga oid maqolamizda ushbu manba muhim ilmiy asos sifatida ishlatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, ya'ni O'zbekiston to'qimachilik korxonalarini tomonidan 2015-2024 yillarda ishlab chiqarish, resurs sarfi, energiya va suv iste'moli, tannarx va ishchi unumdorligi bo'yicha hisobotlar, shuningdek, milliy statistika va eksport ma'lumotlari o'rganilgan, korporativ tahlil, ya'ni iqtisodiy va tashkiliy ko'rsatkichlarning o'tgan davrlar bilan taqqoslanishi orqali ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasi baholangan, indeks va ko'rsatkichlar tahlili, ya'ni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni baholash uchun ishlab chiqarishning raqobatbardosh va barqarorlik indeksi (IRBI) qo'llanilgan, statistik va diagramma tahlili, ya'ni energiya, suv va xomashyo sarfi, mahsulot sifati va nuqson ulushi kabi ko'rsatkichlar grafik va jadval orqali vizual tarzda tahlil qilingan. Ushbu metodologiya maqolaga ilmiy asos va amaliy tavsif berib, to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi va boshqaruv tizimlarini kompleks baholaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va tashkiliy mexanizmlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ilg'or boshqaruv yondashuvlarini joriy etish - tejamkor ishlab chiqarish, o'z vaqtida ishlab chiqarish va olti sigma tizimi - ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tejamkor ishlab chiqarish modeli energiya va xom ashyo sarfini kamaytirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, ortiqcha resurslarni yo'qotishni kamaytiradi. O'z vaqtida ishlab chiqarish tizimi esa ortiqcha zaxiralarni qisqartirib, ombor va logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda buyurtmalarni tezroq bajarish imkonini beradi. Olti sigma tizimi ishlab chiqarish jarayonidagi xatoliklarni kamaytiradi va nuqsonli mahsulot ulushini pasaytiradi, bu esa mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Tashkiliy jihatdan, ishlab chiqarish bo'limlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish va xodimlarning malakasini oshirish ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi. Raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari jarayonlarni shaffof va tezkor qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini baholashda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni inobatga olish korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlariga talabning barqaror o'sishi, ekologik toza va resurs tejamkor ishlab chiqarish standartlariga o'tish, xom paxtani eksport qilishdan to'liq qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. "2015-yilda paxtaning 38 % qismi mamlakatda qayta ishlangan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 100 % ga yetgani xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etildi".

1-jadval

**O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida resurs sarfining asosiy ko'rsatkichlari
dinamikasi (2015-2024 yy.)**

№	Ko'rsatkich	2015 yil	2020 yil	2024 yil	2015 y.ga nisbatan 2024 y.da o'zgarish, (+; -)
1	1 kg ip ishlab chiqarish uchun elektr energiyasi sarfi, kVt·soat	5,8	4,2	3,6	- 37,9 %
2	1 kg mato bo'yash uchun suv sarfi, litr	92	70	55	-40,2 %
3	1 kg paxta tolasini qayta ishlash uchun tabiiy gaz sarfi, m ³	4,1	3,4	2,8	-31,7 %
4	1 kg tayyor mato ishlab chiqarish uchun umumiy suv sarfi, litr	145	108	82	-43,4 %
5	Paxta tolasining ichki iste'moli (to'qimachilikda), ming tonna	505	650	1 050	+107,9 %
6	1 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan elektr energiyasi, kVt·soat	285	198	142	-50,2 %
7	1 ishchi boshiga yillik ip ishlab chiqarish, tonna	4,8	6,2	9,1	+89,6 %
8	Chiqindi suvning qayta ishlatish darajasi, %	12 %	28 %	47 %	+35 %
9	Kimyoviy moddalar sarfining kamayishi (bo'yash jarayonida), %	-	-	100 % → 68 %	-32 %
10	Texnologik jihozlarning o'rtacha eskirish darajasi, %	58 %	41 %	26 %	-32 %

O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati 2015-2025 yillar davomida eng dinamik o'sayotgan va tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashayotgan tarmoqlardan biri sifatida shakllandi. "Mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoatning umumiy ulushi ortib borar ekan, undagi eng yirik bo'g'inlardan biri aynan to'qimachilik va tikuv-trikotaj klasterlari bo'lib, ularning qo'shilgan qiymat yaratishdagi hissasi 2024-yil holatiga ko'ra 14,1 % ni tashkil etgan".

To'qimachilik ishlab chiqarish nafaqat sanoat hajmidagi ulushi, balki bandlik ko'rsatkichlari bilan ham alohida ahamiyatga ega. ILO (2023) bahosiga ko'ra, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlarida O'zbekistonda 570 mingdan ortiq ishchi faoliyat yuritadi, bu esa mamlakatdagi umumiy bandlarning 8-9 % qismini tashkil qiladi. Bu tarmoq ayniqsa xotin-qizlar bandligini oshirishda muhim rol o'ynaydi - ularning 70 % dan ko'prog'i tikuv-trikotaj sexlarida mehnat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston "2017-2025 yillar oralig'ida to'qimachilik mahsulotlari eksportini 2,1 milliard AQSh dollaridan 2024-yilda 4,0 milliard dollarga yetkazdi". Bu davrda eksport geografiasini 35 davlatdan 70 dan ortiq davlatga kengaytdi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ip-kalava, gazlama, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari Turkiya, Rossiya, Xitoy, Polsha, Bangladesh, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida raqobatbardosh bo'la boshladi. Yuqoridagi omillar shuni ko'rsatadiki, tarmoq nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va texnologik rivojlanish nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega. 2015-2025 yillarda to'qimachilik sanoati keskin modernizatsiya jarayonidan o'tdi. Biroq texnologik yangilanish darajasi tarmoqlar bo'yicha bir xil emas. Spinning (ip yigirish) yo'nalishida zamonaviy rotor va ring ip yigirish liniyalari joriy etilgan bo'lsa, dyeing (bo'yash) va finishing (pardozlash) bo'g'inlarining bir qismi hanuzgacha energiya ko'p talab qiluvchi, suv sarfi yuqori bo'lgan eski uskunalarda ishlamoqda.

Tahlillarimizga ko'ra, 2015-yilda ishlatilayotgan uskunalarning 42 % eskirgan, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 27 %ga tushgan, ammo haligacha 35-40 %i modernizatsiya

qilinmagan. Shu bilan birga, xom ashyo oqimlari, energiya sarfi, suv sarfi bo'yicha statistik tafovutlar mavjud.

Yuqoridagi raqamlar tarmoqda sezilarli modernizatsiya bo'lganini ko'rsatadi, ammo resurs oqimlarining barqarorligi, energiya samaradorligi, suv tejash, chiqindilarni kamaytirish, kimyoviy xavfsizlik kabi yo'nalishlar bo'yicha hali ham dolzarb masalalar mavjud. Aynan shu jihatlar tadqiqotning dolzarbligini kuchaytiradi.

To'qimachilik sanoati murakkab, ko'p bosqichli ishlab chiqarish jarayonlariga ega bo'lib, unda xomashyo tayyorlashdan tortib, tolasini qayta ishlash, ip yigirish, gazlama to'qish, bo'yash, pardoqlash va tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan texnologik zanjirlar uzluksiz ravishda bir-biriga bog'langan. Ushbu bosqichlarning har biri iqtisodiy jihatdan turlicha resurs talablarini, tashkiliy boshqaruv mexanizmlarini va operatsion boshqaruv choralari talab qiladi. Shu sababli to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, optimallashtirish va nazorat qilish korxonalar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Birinchiidan, to'qimachilik sanoati yuqori resurs talabchanligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish jarayoni xomashyo tayyorlashdan tortib, ip yigirish, to'qish, bo'yash, pardoqlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bir necha bosqichdan iborat. Paxta tolasi, ipkalava, bo'yoq moddalar, kimyoviy reaktivlar - mahsulot tannarxining asosiy qismini tashkil qiladi va xomashyo samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish korxonaning iqtisodiy foydasiga bevosita ta'sir qiladi, undan tashqari to'qimachilik ishlab chiqarishi mehnat sig'imi yuqori bo'lgan sohalaridan biri bo'lib, malakali ishchi kuchiga talab katta. Ishchi unumdorligini oshirish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi. Elektr energiyasi, bug', issiqlik va suv sarfi ishlab chiqarish xarajatlarining muhim qismini tashkil qiladi. Energiya tejamkor uskunalar va jarayonlarni optimallashtirish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulot zaxiralari ishlab chiqarish aylanishi va rentabellikka bevosita ta'sir qiladi. Zaxiralarni optimallashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot yetkazib berish tezligini oshiradi.

Ikkinchiidan, avvalo tashkiliy jihat, ishlab chiqarish jarayonlarining ketma-ketligi va uzluksizligini ta'minlashdir. Har bir texnologik bosqichning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi sababli, bir sexdagi kechikish butun korxonalar ritmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Undan keyin, to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari ko'pincha uch turdagi oqimga ega:

- ishlab chiqarish liniyalari bo'yicha oqim - ip yigirish yoki to'qish liniyalari.
- partiyaviy ishlab chiqarish oqimi - bo'yash va pardoqlash sexlarida.
- buyurtmaga asoslangan oqim - tikuvchilik va tayyor mahsulot ishlab chiqarishda.

Har bir tur o'ziga xos tashkiliy yondashuvni talab qiladi. Yana, sifat nazorati tizimi muhim tashkiliy elementdir. Tola sifatidan tortib, tayyor mahsulot qadoqlanishigacha bo'lgan barcha bosqichlarda sifat standartlariga rioya qilinishi eksport salohiyatini belgilaydi. Bu esa, texnik xizmat ko'rsatish va uskunalarning reja asosida ta'mirilishi ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlovchi asosiy omildir. Uskunalarining to'xtab qolishi korxonalar uchun yuqori iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi.

Uchinchiidan, so'nggi yillarda to'qimachilik korxonalarida quyidagi boshqaruv konsepsiyalari keng qo'llanilmoqda:

- "Ishlab chiqarishni oqillashtirish" (Lean) - ortiqcha harajatlarni kamaytirish, resurslarni tejamkor boshqarish.
- "aniq vaqtli ta'minot" (Just-in-Time) - zaxiralarni minimallashtirish va ishlab chiqarish ritmini barqarorlashtirish.
- "olti sigma usuli" - brakka olib keladigan xatoliklarni aniqlash va jarayonni takomillashtirish.
- raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, MES, SCADA) - ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish.

Ularning qo'llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, tannarxni kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi.

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlari murakkab va ko'p omilli bo'lib, ular o'zaro bog'langan resurs, texnologiya va boshqaruv jihatlarini qamrab oladi. Yaxshi tashkil etilgan ishlab chiqarish tizimi, resurslardan oqilona foydalanish, sifat nazoratining kuchli mexanizmlari hamda zamonaviy boshqaruv usullarining joriy etilishi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini yuqori darajada ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish bilan bevosita bog'liq. So'nggi yillarda tarmoqda amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari energiya, suv va xomashyo sarfining kamayishi hamda mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarida tejamkor ishlab chiqarish (Lean), o'z vaqtida ishlab chiqarish (Just-in-Time) va olti sigma (Six Sigma) kabi ilg'or boshqaruv usullarini qo'llash resurslardan samarali foydalanish, mahsulot sifatini oshirish va tannarxni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va tashkiliy muvofiqlashtirishni kuchaytirish to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Umarxodjayeva M.G., Ismailov A.R. (2019) Korporativ boshqaruv-2. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisodiyot.

Xoshimov A.A. (2003) Korporatsiya shaklidagi tuzilmalarning rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Moliya.

Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. (2013) Menejment nazariyasi. Darslik. Toshkent: TDIU.

Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. (2019) Tizimli menejment nazariyasi. Darslik. Toshkent: TDIU.